



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi



TADQIQOTLAR



ILM-FAN



TEKNOLOGIYALAR

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2026



Google Scholar



zenodo

OpenAIRE

Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI TO'PLAMI

3-JILD 4-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro
ilmiy bazalarda indexlanadi



www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

NUTQ MADANIYATI VA UNING AHAMIYATI

Sayfullayeva Rayhona Ulug‘bekovna

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti, filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi 1-bosqich talabasi, @sayfullayevarayhona12gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutq madaniyati tushunchasi, uning tilshunoslikdagi o‘rni va jamiyat hayotidagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, nutq madaniyatining asosiy mezonlari, adabiy til me‘yorlariga rioya qilish masalalari, insonlar qanday gapirsa madaniyatli ko‘rinishi hamda yoshlar nutqini rivojlantirish omillari tahlil qilinadi. Nutq madaniyatining insonning ijtimoiy mavqei va shaxs sifatida shakllanishidagi roli ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: nutq madaniyati, adabiy til me‘yorlari, til va nutq, nutqning to‘g‘riligi, nutqning aniqligi, ravon nutq, ifodali nutq, tilshunoslik, nutq faoliyati, muloqot madaniyati, so‘z boyligi, uslubiyat, nutq odobi, yoshlar nutqi, til va jamiyat.

Annotation. This article examines the concept of speech culture, its role in linguistics, and its importance in social life. It also analyzes the main criteria of speech culture, issues related to adherence to literary language norms, how a person’s way of speaking reflects their level of culture, as well as factors influencing the development of youth speech. The role of speech culture in shaping an individual’s social status and personal development is also revealed.

Key words: speech culture, literary language norms, language and speech, correctness of speech, clarity of speech, fluent speech, expressive speech, linguistics, speech activity, communication culture, vocabulary richness, stylistics, speech etiquette, youth speech, language and society.

Kirish. Nutq madaniyati haqida gap ketganda, avvalo til tushunchasiga alohida to‘xtalib o‘tishimiz kerak. Til — insoniyatning eng muhim aloqa vositasi bo‘lib, u orqali kishilar o‘z fikrini, his-tuyg‘ularini va munosabatlarini boshqa birovlariga ifoda etadi. Tilning amaliy qo‘llanilishi esa nutq orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababli nutqning to‘g‘ri, aniq va ravon bo‘lishi jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Nutq madaniyati avvalo, to‘g‘ri, adabiy til me‘yorlariga amal qilgan holda so‘zlashdir. Nutq madaniyatining yuqori darajasi madaniyatli kishining ajralmas xususiyati hisoblanadi. Nutqimizni yaxshilash har birimizning vazifamiz. Buning uchun talaffuzda, so‘z shakllaridan foydalanishda, jummalarni tuzishda xato qilmaslik uchun nutqimizni kuzatib borishimiz kerak.

Nutq madaniyatining keyingi tom ma‘nosi tilshunoslik fanining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi, u adabiy til me‘yorlariga rioya qilgan holda to‘g‘ri va samarali muloqot qilishni o‘rganadi. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlangan davrda nutq madaniyatiga bo‘lgan talab yanada ortib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar nutqida adabiy me‘yorlarga amal qilish, so‘z boyligini oshirish va nutqni to‘g‘ri tashkil etish dolzarb masalalardan biridir.

Asosiy qism. Nutq madaniyatiga ilmiy usulda ta'rif beradigan bo'lsak, bu shaxsning til vositalaridan o'rinli, to'g'ri va samarali foydalanish qobiliyatidir. U nafaqat grammatik jihatdan to'g'ri gapirishni, balki nutqning mazmunli, mantiqli va ta'sirchan bo'lishini ham talab qiladi. Nutq madaniyati bir nechta muhim mezonlarga asoslanadi:

Birinchidan, to'g'rilik — nutqning grammatik va leksik me'yorlarga mos kelishi. Bu holatda so'zlarning to'g'ri qo'llanilishi, gap tuzilishining adabiy til qoidalariga mosligi muhim hisoblanadi. Gapimiz mantiqli chiqishi uchun avvalo uni grammatik jihatdan to'g'ri tuzishni bilishimiz lozim.

Ikkinchidan, aniqlik — fikrning tushunarli va ravshan ifodalanishi. Nutqda ortiqcha so'zlardan qochish, aniq ma'no beruvchi birliklardan foydalanish zarur. Qisqa va lo'nda gaplar insonning ongiga tez yetib boradi.

Uchinchidan, ravonlik — nutqning silliq va izchil bo'lishi. Bu nutqni eshituvchi yoki o'quvchi uchun qulay qabul qilinishini ta'minlaydi. Ravon fikrlar go'zal eshitiladi va suhbatdoshni o'ziga jalb eta oladi.

To'rtinchidan, ifodalilik — nutqning ta'sirchanligi va obrazlilik. Bu xususiyat nutqni jonli va qiziqarli qiladi. Tabiiyki, ta'sirchan fikrlar insonga tez ta'sir qiladi.

Shuningdek, nutq madaniyati insonning umumiy madaniy darajasini aks ettiradi. Yaxshi nutqqa ega bo'lgan shaxs jamiyatda hurmat qozonadi, o'z fikrini aniq yetkazadi va samarali muloqot qila oladi. Aksincha, nutqdagi xatolar, noo'rin so'zlar yoki qo'pol ifodalar inson haqida salbiy taassurot uyg'otadi.

Hozirgi kunda ayrim yoshlar nutqida xorijiy so'zlarni ortiqcha ishlatish, sheva elementlarini aralashtirish yoki grammatik xatolarga yo'l qo'yish holatlari uchrab turibdi. Bu esa nutq madaniyatining pasayishiga olib keladi. Shuning uchun ta'lim jarayonida nutq madaniyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Nutq madaniyatini shakllantirishda quyidagi omillar muhim rol o'ynaydi:

Birinchi navbatda, badiiy va ilmiy adabiyotlarni ko'proq mutolaa qilish kerak. Bundan tashqari, adabiy til me'yorlarini o'rganish; og'zaki va yozma nutq ustida muntazam ishlash; ommaviy axborot vositalaridan to'g'ri foydalanish;

Shu bilan birga, o'qituvchilar va pedagoglar yoshlarning nutqini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ular nafaqat bilim berishi, balki o'z nutqi orqali o'rnak bo'lishi lozim. Sidiqjon Mo'minovning "Nutq madaniyati" kitobida quyidagi fikrlar ta'kidlab o'tilgan: "Chin inson doimo komillikka intiladi. Komillikning asosiy belgilaridan biri madaniy nutqdir. Shuning uchun ham qadimdan butun mashriq mag'ribda yoshlar nutqini rivojlantirishga, madaniy nutqni shakllantirishga alohida ahamiyat berganlar. Xususan, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul Haqoyiq", Alisher Navoiyning "Hayratul abror", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Abulg'oz Bahodirxonning "Shajarai turk" asarlarida so'z qadri, so'z qo'llash san'ati, so'z qo'llashning inson hayotida tutgan o'rni haqida ibratli fikrlar bayon qilinadi".

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, nutq madaniyati insonning shaxs sifatida kamol topishida, jamiyatda o'z o'rnini topishida muhim ahamiyatga ega. To'g'ri, aniq va ravon nutq insonning bilim darajasi va madaniyatini namoyon etadi. Shu bois, har bir inson, ayniqsa, yoshlar nutq madaniyatini rivojlantirishga e'tibor qaratishi zarur. Yuksak nutq madaniyati kishining umumiy yuksak madaniyatini, fikrlash madaniyatini, tilga nisbatan ongli mehr-muhabbatini namoyon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Mahmudov N. O'zbek tilida nutq madaniyati. – Toshkent: O'qituvchi, 2007.
3. Nurmonov A. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2012.
4. Hojiyev A. O'zbek tilshunosligi asoslari. – Toshkent: Universitet, 2010.
5. Rasulov R. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: Fan, 2015.
6. Mo'minov S. Nutq madaniyati. – Toshkent: Fan, 2013.